



## THE CONCEPT OF LINGUISTIC PARADIGM IN LINGUISTICS

**Haydaraliyeva Shahzoda Ravshan qizi**

First-year student, Department of Uzbek Language and Literature,  
Faculty of Philology,

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Phone: +998 88 291 87 07

Email: [shahzodahaydaraliyeva82@outlook.com](mailto:shahzodahaydaraliyeva82@outlook.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19415126>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2026

Online: 31<sup>st</sup> March 2026

### KEYWORDS

Paradigm, linguistic paradigm, language system, paradigmatic relationship, syntagmatic relationship, morphological paradigm, grammatical category.

### ABSTRACT

*This article provides a scientific analysis of the issue of linguistic paradigm, which is considered one of the important theoretical concepts in the science of linguistics. Based on scientific sources, the formation of the paradigm concept, its place in the language system, the essence of paradigmatic relations, and their manifestations in morphological and grammatical systems are highlighted. Furthermore, the systemic connection between language units and their functional significance is analyzed through linguistic paradigms. The article also examines the scientific interpretation of the paradigm concept based on the theory of structural linguistics.*

## ПОНЯТИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЫ В ЯЗЫКОЗНАНИИ

**Хайдаралиева Шахзода Равшан кизи**

студентка 1 курса направления «Узбекский язык и литература», филологический факультет, Шахрисабзский государственный педагогический институт

Телефон: +998 88 291 87 07

Электронная почта: [shahzodahaydaraliyeva82@outlook.com](mailto:shahzodahaydaraliyeva82@outlook.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19415126>

### ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2026

Online: 31<sup>st</sup> March 2026

### KEYWORDS

Парадигма, лингвистическая парадигма, языковая система, парадигматические отношения, синтагматические отношения, морфологическая парадигма, грамматическая категория.

### ABSTRACT

*В данной статье научно анализируется вопрос лингвистической парадигмы, которая считается одним из важных теоретических понятий в лингвистике. На основе научных источников освещаются формирование понятия парадигмы, её место в языковой системе, сущность парадигматических отношений, а также их проявления в морфологической и грамматической системах. Также через лингвистические парадигмы анализируется системная связь между языковыми единицами и их функциональная значимость. В статье рассматривается научная интерпретация понятия парадигмы на основе теории структурной лингвистики.*



**TILSHUNOSLIKDA LISONIY PARADIGMA TUSHUNCHASI**

**Haydaraliyeva Shahzoda Ravshan qizi,**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va  
adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Telefon raqam: +998 88 291 87 07

Elektron manzili: [shahzodahaydaraliyeva82@outlook.com](mailto:shahzodahaydaraliyeva82@outlook.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19415126>

**ARTICLE INFO**

Received: 25<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2026

Online: 31<sup>st</sup> March 2026

**KEYWORDS**

*Paradigma, lisoniy  
paradigma, til tizimi,  
paradigmatik munosabat,  
sintagmatik munosabat,  
morfologik paradigma,  
grammatik kategoriya.*

**ABSTRACT**

*Mazkur maqolada tilshunoslik fanida muhim nazariy tushunchalardan biri hisoblangan lisoniy paradigma masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Paradigma tushunchasining shakllanishi, uning til tizimidagi o'рни, paradigmatik munosabatlarning mohiyati hamda morfologik va grammatik tizimdagi ko'rinishlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, lisoniy paradigmalar orqali til birliklari o'rtasidagi tizimli bog'lanish va ularning funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada struktur tilshunoslik nazariyasi asosida paradigma tushunchasining ilmiy talqini ham ko'rib chiqiladi.*

Til murakkab va ko'p qatlamli tizim bo'lib, undagi birliklar o'zaro ma'lum qonuniyatlar asosida bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi. Til birliklari o'rtasidagi bu bog'lanishlar til tizimining ichki tuzilishini tashkil etadi. Tilshunoslik fanida bunday munosabatlarni o'rganish tilning struktur va funksional xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Til birliklari o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishda paradigma tushunchasi muhim nazariy kategoriya sifatida qaraladi. "Ilmiy paradigma" tushunchasi metodolog olim Tomas Kunning ta'biricha, "ma'lum davrda muammolarni shakllantiruvchi va ularning yechimini topish imkonini

yaratuvchi barcha tomonidan e'tirof etilgan ilmiy yutuqlardir."<sup>1</sup> [1:38]

Paradigma til birliklarining bir-biri bilan o'xshash yoki qarama-qarshi xususiyatlari asosida tashkil topgan tizimli majmuani anglatadi. Tilshunoslikda paradigma tushunchasi til birliklarining grammatik shakllari va kategoriyalarini o'rganishda keng qo'llanadi. Paradigma nazariyasi tilshunoslikka struktur tilshunoslik rivojlanishi bilan kirib kelgan bo'lib, bu yo'nalish tilni alohida elementlar yig'indisi emas, balki o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan paradigma til tizimining ichki tashkil etilishini tushunishda muhim nazariy vosita hisoblanadi.

<sup>1</sup> Safarov, Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. –B.38.



Paradigma tushunchasining shakllanishi. Paradigma so'zi grekcha so'z bo'lib, "misol", "namuna" degan ma'nolarni anglatadi.<sup>2</sup>[2:79] Tilshunoslik tarixida "paradigma" atamasi birinchi marta Ferdinand de Sossyur tomonidan XIX asr oxiri XX asr boshlarida bir-biriga o'xshash xususiyatga ega bo'lgan elementlarning sinfini ifodalash uchun ishlatilgan. Shveysariyalik tilshunos **Ferdinand de Saussure** til tizimidagi munosabatlarni ikki asosiy turga ajratadi:

**1. Sintagmatik munosabatlar**

**2. Paradigmatik munosabatlar**

Sintagmatik munosabatlar nutq jarayonida til birliklarining ketma-ket bog'lanishi orqali yuzaga keladi.

Paradigmatik munosabatlar esa til tizimida mavjud bo'lgan birliklarning o'zaro almashinish imkoniyatiga asoslanadi.

Masalan, gap tarkibida ma'lum bir so'z o'rnida boshqa bir so'z qo'llanishi mumkin. Bu birliklar o'zaro paradigmatik munosabat hosil qiladi. Shu sababli paradigma til tizimidagi birliklarning o'zaro bog'lanishini ifodalovchi muhim tushunchadir.<sup>3</sup>[3:123]

Roman Jakobson ham til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni tanlash va birikish tamoyillari asosida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, tanlash munosabatlari paradigmatik xarakterga ega bo'lib, ular til birliklarining o'zaro almashinish imkoniyatiga asoslanadi. Bu esa paradigmatik munosabatlarning til

tizimidagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.<sup>4</sup>[4:55]

Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiy, o'xshash belgi-xususiyatga ega bo'ladi. Ana shu o'xshashlik va umumiylik ularni birlashtiruvchi, bir tizimda ushlab turuvchi belgilari sanaladi. Masalan, unlilar «sof ovozga egalik» umumiy belgisi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgiga ham ega bo'lishi shart. Masalan, [a] «lablanmaganlik», [o] «lablanganlik» farqlovchi belgisiga ega, «kenglik» belgisi esa ularni birlashtiradi. Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi paradigma deyiladi. Paradigmani tashkil etuvchi birlik paradigma a'zosi deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a'zo bo'lib, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'ladi. Bir paradigma a'zolari orasidagi o'zaro munosabat paradigmatik munosabat deyiladi.<sup>5</sup>[5:42]

Lisoniy paradigma va uning mohiyati. Lisoniy paradigma til birliklarining grammatik shakllari tizimidan iborat bo'lib, u tilning morfologik va grammatik tuzilishini aks ettiradi. Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko'ra, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik paradigma farqlanadi. Aytilganidek, fonema tizimi va ularning ichki bo'linishi fonologik paradigma deyiladi. Fonologik paradigmaning xususiyati, uni tashkil etuvchi birlikning paradigmatik

<sup>2</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.– B.79.

<sup>3</sup> Saussure F. Umumiy tilshunoslik kursi. – Moskva: Progress, 1977.– B.123.

<sup>4</sup> Jakobson R. Fundamentals of Language. – The Hague: Mouton, 1956.– B.55.

<sup>5</sup> Sayfullayeva, R., Mengliyev, B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.–B.42.



munosabati xususida «Fonetika-fonologiya» bo'limida bahs yuritiladi.

Semantik-grammatik umumiylikka ega bo'lgan leksik birliklar lug'aviy paradigmani tashkil etadi. Sinonimik, partonimik, giponimik, ierarxionimik, graduonimik, funksionimik qatorga birlashgan leksemalar tizimi, alohida lug'aviy guruh, lug'aviy-mavzuviy to'da, lug'aviy-mazmuniy maydon, so'z turkumi ham yirik (makro) paradigmani tashkil etadi. Leksik paradigma va ularda amal qiluvchi paradigmatic munosabat haqida «Leksikologiya-semasiologiya» bo'limida bahs yuritiladi.

Morfologik kategoriya (morfologik shakllar tizimi) — morfologik paradigmadir. Morfologik shakllarning paradigmatic munosabati haqida «Morfologiya-morfemika» bo'limida batafsil to'xtalinadi.

Sintaktik qoliplar tizimi sintaktik paradigmani tashkil etadi. Sintaktik paradigma ikkiga — gap paradigmasi va so'z birikmasi paradigmasiga bo'linadi. Gap paradigmasining o'zi ikki — sodda gap qolipi va qo'shma gap qolipi kabi ichki (mikro) paradigmaga bo'linadi. Bu bilan «Sintaksis» bo'limida tanishish mumkin.<sup>6</sup> [6:43]

Paradigma bir so'zning turli grammatik shakllaridan tashkil topgan tizim sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, ot so'z turkumining kelishik shakllari quyidagi paradigmani tashkil etadi:

Bosh kelishik

Qaratqich kelishigi

Tushum kelishigi

Jo'nalish kelishigi

O'rin-payt kelishigi

Chiqish kelishigi

Bu shakllar bir so'zning turli grammatik ko'rinishlari bo'lib, ular o'zaro tizimli bog'lanishda mavjud. Shu sababli ular morfologik paradigma deb ataladi. Tilshunos A.Hojiyev paradigma tushunchasini til birliklarining o'zaro qarama-qarshi yoki o'xshash shakllari asosida tashkil topgan tizim sifatida izohlaydi. Bunday tizim tilning grammatik tuzilishini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Morfologik paradigmalar. Morfologik paradigma tilshunoslikda eng keng tarqalgan paradigmalardan biri hisoblanadi. Bu paradigma so'zlarning grammatik shakllari orqali namoyon bo'ladi.

Masalan, fe'l so'z turkumida zamon kategoriyasi quyidagi paradigmani hosil qiladi:

O'tgan zamon

Hozirgi zamon

Kelasi zamon

Shuningdek, fe'llarning shaxs-son shakllari ham paradigmatic tizimni tashkil etadi. Masalan:

Boraman

Borasan

Boradi

Bu shakllar fe'l paradigmasining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Paradigmatic munosabat atamasining muqobillari sifatida o'xshashlik munosabati, assotsiativ munosabat atamalari ham ishlatiladi. Tizim so'zi ham ko'p hollarda paradigma atamasi o'rnida ishlatiladi: unlilar tizimi, kelishik tizimi kabi. Jarangli va

<sup>6</sup> Sayfullayeva, R., Mengliyev, B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.–B.43.



jarangsizlar alohida kichik yoki ichki paradigma bo'lib, undosh tizimi bir butun holda ularga nisbatan katta yoki tashqi paradigma deyiladi.

Paradigmatik munosabat va neytralizatsiya. Bu tushuncha struktur tilshunoslikda Nikolai Trubetzkoy tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra paradigmatik tizimdagi qarama-qarshiliklar (oppozitsiyalar) har doim ham faol bo'lavermaydi, ba'zi holatlarda ular neytrallashadi. Masalan, fonologiyada:

$b \leftrightarrow p$  (jarangli  $\leftrightarrow$  jarangsiz)

Bu — paradigmatik oppozitsiya. Lekin ayrim pozitsiyada (so'z oxirida) bu farq yo'qolishi mumkin.<sup>7</sup>[7:60]

Lisoniy paradigmaning asosiy xususiyatlari. Lisoniy paradigmaning o'ziga xos bir nechta xususiyatlari mavjud:

1. Paradigmadagi bitta birlik eslanganda, shu paradigmaga kiruvchi boshqa a'zo ham xotirlanishi (esga olinishi) zarur.
2. Muayyan nutq sharoiti uchun o'zaro paradigmatik munosabatda turgan birlikdan, ya'ni paradigma a'zolaridan bittasi tanlanishi lozim.
3. Bir paradigmaning a'zolari o'zaro o'xshashlik bilan birga, har bir a'zo ikkinchisidan qaysidir bir xususiy belgisi bilan farqlanib turishadi.
4. Paradigma a'zolari nutqda bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini ma'lum holatda almashtira olishi, o'rnini egallashi mumkin.<sup>8</sup>[8:42]

Paradigmatik munosabatlarning til tizimidagi ahamiyati. Paradigmatik munosabatlar til tizimining ichki tuzilishini tashkil etuvchi muhim omillardan biridir. Til birliklari o'rtasidagi bu munosabatlar tilni tizimli holda o'rganish imkonini beradi.

Paradigmatik munosabatlar orqali: Grammatik kategoriyalar aniqlanadi;

Til birliklari tasniflanadi;

Til tizimining strukturasi o'rganiladi.

Tilshunos A.Nurmonov ta'kidlashicha, til birliklari o'rtasidagi paradigmatik munosabatlar tilning grammatik tizimini tashkil etuvchi asosiy omillardan biridir. Chunki har bir til birligi o'ziga xos paradigmatik tizimga ega bo'lib, bu tizim tilning umumiy strukturasi bilan uzviy bog'liqdir. Paradigmatik munosabatlar til birliklarining o'xshash va qarama-qarshi xususiyatlarini aniqlash orqali til tizimining yaxlitligini ta'minlaydi.<sup>9</sup>[9:16]

Xulosa qilib aytganda, lisoniy paradigma tilshunoslik fanida til birliklarining tizimli bog'lanishini ifodalovchi muhim nazariy tushunchadir. Paradigma til birliklarining grammatik shakllari va kategoriyalarini o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bloomfield til birliklarini formal jihatdan tasniflab, ularning paradigmatik tizimini grammatik shakllar orqali o'rganishni taklif etadi.<sup>10</sup> [10:114]

<sup>7</sup> Trubetzkoy N. "Principles of Phonology." – Berkeley: University of California Press, 1969.– B.60.

<sup>8</sup> Sayfullayeva, R., Mengliyev, B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.–B.42.

<sup>9</sup> Nurmonov A., Mahmudov N. *O'zbek tilining nazariy grammatikasi.* – Toshkent: Fan, 2001.– B.16.

<sup>10</sup> Bloomfield L. *Language.* – New York: Holt, 1933.– B.114.



Paradigmatik munosabatlar orqali til tizimining ichki tuzilishi, grammatik kategoriyalar va til birliklari o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlanadi.

Tilshunoslikda paradigma tushunchasini chuqur o'rganish til

tizimining nazariy asoslarini anglashga, shuningdek, grammatik hodisalarni tizimli tahlil qilishga imkon beradi. Shu sababli paradigma nazariyasi zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

### **References:**

1. Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933. – 564 b.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 158 b.
3. Jakobson R. Fundamentals of Language. – The Hague: Mouton, 1956. – 96 p.
4. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 149 b.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 320 b.
6. Saussure F. de. Umumiy tilshunoslik kursi. – Moskva: Progress, 1977.– 275 b.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 414 b.